

O'ZBEKISTONDA QURILISH MATERIALLARI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Prof. A.Baxodirov, D.Shermatov, S.Razzaqov
“O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi, O'zbekiston

“Ilm-fan bilan shug'ullanish, yangi kashfiyot va ixtiolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap. Shunday ekan, bu mashaqqatli sohada fidokorona mehnat qilayotgan olimlarimizni mehnati taxsin va rag'batga munosib”.
Shavkat Mirziyoev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ilm-fan va innovatsiyalari mamlakat taraqqiyoti va farovonligining asosidir. Ayniqsa, barcha sohada yangiliklarga intilish hamda raqobat kuchayib borayotgan bugungi davr iqtisodiy salohiyatni mustahkamlab borish uchun ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnikaviy yutuqlardan samarali foydalanishni talab etmoqda. Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarayotgan zamон barcha sohalar qatorida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida ham ilm-fan va innovatsiyalarni yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Zotan, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarsiz echish qiyin. Davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham mazkur tizimni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Ilm-fan bilan shug'ullanish, ixtiolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap, deya takidlagan edi Prezidentimiz.

Yurtimizda so'nggi yillarda qurilish materiallari sanoati sohasiga ilm-fan va innovatsiyalarni joriy qilishga alohida e'xtibor qaratib kelinmoqda. Natijada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagи PQ-4198-sonli va 2019 yil 23 maydagи PQ-4335-sonli qarorlari qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishning istiqbollari va strategiyasini belgilab berdi.

Respublikamiz qurilish materiallari sanoatida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish suratlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish agentligi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda Qurilish materiallari tarmog'ini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezident qaroriga asosan yangi turdagи innovatsion qurilish materiallari texnologiyalarini yaratishga qaratilgan, 25 nafar akademik, professor, fan doktorlari, fan nomzodlar va ishlab chiqarishning tajribali vakillaridan tashkil topgan Respublika ilmiy-texnik kengashi tashkil etilib, uning faoliyati muntazam yo'lga qo'yilgan. Ushbu kengashga akademik I.Yu.Abduraxmonov raislik qilib kelmoqda.

Bugungi kungacha Kengashga jami 60 dan ortiq innovatsion loyihamalar kelib tushgan. Ushbu kelib tushgan loyihamalar uchun belgilangan tartibda ilmiy-texnik kengash tomonidan ekspertlar (har bir loyiha 2-3 tadan ekspert) tayinlangan bo'lib 60 dan ortiq loyihamadan jami 30 ta loyiha ekspertlar tomonidan maqullanib Kengash yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan. Ushbu 30 ta loyihamadan 13 ta innovatsion loyihalarga ilmiy-texnik kengashning qarori bilan 17 mlrd. so'mga yaqin mablag' ajratilgan.

Bugungi kunda, qurilish materiallari sanoatiga ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarni keng joriy qilishda Uyushma tomonidan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Jizzax

politexnika instituti, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent shahridagi Inha universiteti kabi yirik tayanch oliy ta'lim muassasalar bilan uzviy aloqlar o'rnatilgan. Bundan tashqari, qator Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalar bilan keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Natijada 2022 yilda oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalar tomonidan yaratilgan jami 31 ta innovatsion texnologiyalar qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalar tomonidan amaliyatga joriy qilingan.

Shu bilan birga, qurilish oynasi, keramik plitkalar, gulqog'oz, linoleum, mineral momiq, shisha tolalar, olovbardosh g'isht, asbest, tabiiy pardozbop toshlar (granit va marmar), sanitar keramika, o'tga chidamli tsement qorishmalar innovatsion qurilish materiallari hisoblanib, Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida qurilish materiallarini yangi turlarini ishlab chiqish bo'yicha umumiyligi qiymati 12,1 mlrd. so'mlik 10 ta (shundan 6 ta amaliy (7,7 mlrd. so'mlik), 4 ta innovatsion (4,4 mlrd. so'mlik)) loyihibar amalgalashmoqda.

Mazkur loyihibar yakuniga ko'ra tarkibida glaukonit va temir mavjud bo'lgan pigmentlar olish texnologiyasi, minerallashgan quvur, fitting, panel va pol qoplamlari ishlab chiqarish innovatsion texnologiyasi, "yashil tsement" kompozitsiyalarini ishlab chiqarish texnologiyasi, sanoat chiqindilarasi asosida agloporit olish texnologiyasi, yangi avlod oligomer antipirenlarini qo'llab yog'och qurilish materiallari va buyumlarining olovbardoshligini oshirishning resurs tejamkor texnologiyasi yaratilishi kutilmoqda.

Shuningdek, oxirgi 5 yilda mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish jarayonlariga ilm-fan yutuqlari hamda innovatsion texnologiyalarini joriy qilish yo'nalishida olib borilgan ijobiy islohotlar natijasida qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarda rivojlandi.

Kususan, qurilish materiallari sanoatining yillik ishlab chiqarish hajmi 2018 yildagi 12,9 trln so'mdan 2022 yil yakuni bilan 30,7 trln so'mga (2,3 barobar) oshdi.

Sohaga 2018 yilda 750 mln dollarlik investitsiya jalb qilingan bo'lsa, o'tgan yilda bu ko'rsatkich 1,8 mlrd dollarga yoki 2,5 barobarga oshdi.

Shuningdek, eksport hajmi 80,4 mln dollardan 611,2 mln dollarga (7,6 barobar) etkazildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarish 175,2 mlrd so'mdan 1 402 mlrd so'mni tashkil etib, 8 barobarga oshdi.

O'tgan yilda sohaga 1,8 mlrd dollarlik investitsiyalar jalb etildi (o'sish 127 foiz), 611,2 mln dollarlik mahsulotlar eksport qilindi (o'sish 139 foiz),

593 mln dollarlik qurilish materiallari importdan olib kirildi (o'sish 102 foiz), mahalliylashtirish dasturi doirasida 1 402 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi (o'sish 151,7 foiz).

2023 yilda qurilish materiallari sanoatida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 35,3 trln so'mni, o'sish 115 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Joriy yil yakuniga ko'ra sohaga 2,0 mlrd dollarlik investitsiyalar jalb etiladi, 1,0 mlrd dollarlik mahsulotlar eksport qilinadi, mahalliylashtirish dasturi doirasida 1 849 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyundagi "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish Strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-sonli qarorida qurilish materiallari tarmog'iga tegishli 2022-2026 yillarga mo'ljallangan 22 ta loyiha amalgalashmoqda oshirilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, 2023-2024 yillarda Toshkent shahrida "Texnopark" MChJ tomonidan yiliga 1000 ming kv metr HPL (yuqori bosim ostida presslangan) panellar, Farg'onai viloyatida "Art Soft" MChJ tomonidan energiya tejamkor texnologiyalar asosida yiliga 2500 ming kv metr keramogramit plitalar ishlab chiqarish, Jizzax viloyatida "Ekobazal't Group" MChJ tomonidan yiliga 60 ming tonna yangi turdag'i Bazal'tdan kompozit trubalar, "Geoteks Production" MChJ tomonidan yiliga 150 ming tonna geotekstil toiasi kabi yangi turdag'i qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlari hamda yangi ish o'rinnari yaratilishi rejalashtirilgan.

Tarmoqning rivojlanishi mamlakatimiz qurilish bozorini mahalliy xom ashyo resurslari asosida arzon, yuqori sifatlari innovatsion energiya samarali va import o'rnini bosuvchi qurilish materiallari bilan ta'xminlash, ularning turlarini diversifikatsiya qilish, eksportbop raqobatbardosh mahsulotlar hajmini oshirish hisobiga davlatimiz valyuta zahiralarini oshirishga, eng asosiysi respublikamizda yangi ish o'rinalarini yaratishga va insonlar turmush darajasining o'sishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Hurmatli Prezidentimiz bergan topshiriqlar asosida, qurilish materiallari sanoati sohasiga ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish asosida mahsulot turlarini, sifatini, hajmini oshirish bo'yicha Uyushma bilan hamkorlikda keng miqyosdagi ishlar kelgusida ham tizimli ravishda davom ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M., "Yangi O'zbekiston Strategiyasi". "O'zbekiston" nashriyoti 2021.
2. Mirziyoev Sh.M., "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari". "O'zbekiston" nashriyoti 2020.
3. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmon. Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral', PF-4947-son
4. "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaror. Toshkent sh., 2019 yil 23 may, PQ-4335-son.
5. "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihamalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi Qaror. Toshkent sh., 2016 yil 21 oktyabr', PQ-2639-son.